

OTMDA INKLYUZIV TA'LIMGA KIRITILGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING UMUMIY MUAMMOLARI

Gavxar Abdullaeva

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ta'lim va tarbiya sohasidagi yangi hodisalar tegishli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiradi va jamiyat rivojlanishining madaniy va tarixiy qonuniyatlari bilan belgilanadi. Inson hayotining butun jarayoni milliy tarixiy-madaniy tajriba, shaxsning shakllanishi va rivojlanishini belgilab beruvchi iqtisodiy va siyosiy vaziyat asosida rivojlanuvchi muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda amalga oshadi.

Kalit so'zlar: oliy inklyuziv ta'lim, axborot texnologiyalar, masofaviy ta'lim, nogironlikka ega talabalar.

Аннотация. В настоящее время новые тенденции в сфере образования и воспитания отражают соответствующие социально-экономические изменения и определяются культурно-историческими закономерностями развития общества. Весь процесс жизнедеятельности человека протекает в определенной социокультурной среде, развивающейся на основе национального историко-культурного опыта, экономической и политической ситуации, определяющей становление и развитие личности.

Ключевые слова: высшее инклюзивное образование, информационные технологии, дистанционное образование, студенты с ограниченными возможностями.

Abstract. Currently, new trends in the field of education and upbringing reflect the corresponding socio-economic changes and are determined by cultural and historical patterns of development of society. The whole process of human life takes place in a certain socio-cultural environment, developing on the basis of national historical and cultural experience, economic and political situation that determines the formation and development of personality.

Keywords: Higher inclusive education, information technology, distance education, students with disabilities.

O'zbekiston jamiyati rivojlanishining zamonaviy bosqichi insonparvarlik g'oyalari va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarini deklarativ e'lon qilishdan ularni ijtimoiy sohada real amalga oshirishga o'tishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu ijtimoiy o'zgarishlarning belgilovchi yo'nalishlaridan biri, shubhasiz, so'g'lig'ining imkoniyatlari cheklangan insonlarning (SICH) jamiyatga integratsiyalashuvidir. Integratsiya asosan ikki xildagi differentsatsiyalangan yashash va ta'limning yo'llarini qabul qilishga asoslanadi - normal va boshqacha odamlar uchun.. Ushbu yo'nalishning alohida ahamiyati mamlakatimizda SICH insonlarning deyarli barcha toifalari o'n yilliklar davomida segregatsiya sharoitida (lotincha segregation "ajratilish") yashab kelganligi bilan bog'liqdir. Natijada, bugungi kunda ko'plab,


murakkab bo'lgan normativ, tashkiliy, texnik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda, jamiyat va SICh insonlarning o'zaro moslashish jarayonlarini mazkur izolyatsiya murakkablashtiradigan ko'plab salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlarini bartaraf etish kerak bo'lmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda integratsiya va bag'rikenglik g'oyalari ta'siri ostida mahsus ta'lim sohasida ham umum insoniy munosabatlarni uyg'unlashtirishga va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan odamlarning (ATE) moslashtirilishiga ko'maklashish maqsadida, ular uchun umumiy ta'lim maydonini mavjudligini ta'minlash orqali yordam beradigan yangi kontseptual echimlarni izlash harakatlari faollashib bormoqda. Shaxsning umumiy makonga integratsiyalashuvi va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlari orqali "teng imkoniyatlar"ni yaratilishi, ATEga ega bo'lgan insonlarga sifatli ta'lim olish va hayotda o'z o'rinlarini topishlariga yordam berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi yangi munosabatlarga asoslangan ta'lim inklyuziyasi (ingliz tilidan inclusive "o'z ichiga oluvchi") eng insonparvarlar yo'llardan biri deb tan olinadi va asosiy ustuvorliklardan biriga aylanadi. Buning uchun, muvaffaqiyatli xalqaro ishlanmalarni hisobga olgan, tizimning barcha darajalarida, xususan, oliy ta'lim doirasida inklyuziv ta'limni ta'minlash uchun ijtimoiy buyurtmani amalga oshira oladigan shunday inklyuziv ta'lim modelini yaratish va qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Inklyuziv amaliyot, ayniqsa shakllanish bosqichida, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga yuqori talablarni qo'yadi. Imkoniyati cheklangan talabalardan u intellektual va psixologik mobilizatsiyani, nisbatan sog'lom talabalardan - bag'rikenglikni, tushunishni, yordam berishga tayyorlikni talab qiladi. Hatto oliy ta'limda uzoq inklyuziv amaliyot tarixiga ega bo'lgan mamlakatlarda ham SIChga ega talabalar bo'lgan guruhlarda ishlaydigan o'qituvchilarda ko'pgina qiyinchiliklar mavjud[1]. SIChga ega talabaga kasbiy ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlash shunchaki ta'lim muassasalariga borish huquqini berish emasdir. Inklyuziv ta'lim zarur moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishni va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonning qiyinchiliklari "inklyuziv ta'limni amalga oshirishdagi to'siqlar" kontseptsiyasida aks ettirilgan; ta'lim inklyuziyasining muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan shartlar - "to'siqsiz muhit" kontseptsiyasida aks ettirilgan.

Tadqiqotchilar SIChga egalar uchun mavjud va qulay ta'lim tizimini yaratish uchun yyengib o'tish kerak bo'lgan bir nechta asosiy to'siqlarni belgilaydilar:

- arxitekturaviy;
- tashkiliy-huquqiy;
- moliyaviy;
- kognitiv;
- axborotiy;
- texnik va texnologik; ijtimoiy-psixologik.



1 pacm. To'siqlarning asosiy guruhlari.

Arxitekturaviy to'siqlar - nogironlar ehtiyojlari uchun infratuzilmaning yaroqsizligi - nogironlarning kasbiy ta'lim olish imkoniyatini cheklaydigan eng keskin muammolardan biridir. Arxitekturaviy muhit to'siqlarining ahamiyati (uy, o'quv binolarida, kampusda, o'quv binosiga olib boradigan yo'llarda va hokazolarda pandus va liftlarning yo'qligi) aniq bo'lib, u nogiron inson uchun atrof-muhitning jismoniy kirishi mumkin emasligini belgilaydi. Shuni tushunish kerakki, maxsus liftlar, panduslar, tutqichlar, o'quv xonalarida maxsus jihozlangan o'quv joylari, jihozlar va o'quv texnik vositalarining yo'qligi nogironlar uchun ta'lim muassasasining mavjud emasligining ko'rsatkichidir.

Tashkiliy-huquqiy to'siqlar. Oliy ta'lim muassasasida inklyuziv ta'lim olish amaliyoti muammosining ko'lami va yangiligi juda ko'plab hujjatlarni ishlab chiqish va bir qator jamoat institutlarini yaratish yoki qayta qurishni talab qiladi. Butun hayot davomida inklyuziv ta'lim olish, nogiron o'quvchining ta'limga integratsiyasi qilinishidan farqli o'laroq, ta'lim emas, balki ijtimoiy-madaniy texnologiyadir. Bu muammoning tizimligini, uni o'quv dargohi doirasida hal qilib bo'lmasligini bildiradi. OTMda turli xil nogironligi bo'lgan talabalarni birgalikda o'qitish muammosini hal qilish turli tuzilmalar va idoralarning o'zaro hamkorligini va ushbu o'zaro ta'sirni belgilaydigan me'yoriy-huquqiy bazani qayta qurilishini talab qiladi. Istiqbolli yo'nalishlardan biri bu turli OTMlar o'rtasida tarmoq o'zaro hamkorligini shakllarini rivojlantirish bo'lib, bunda alohida ta'limga muhtoj talabalarni o'qitish uchun ta'lim resurslarini yaratishda ham, o'quv jarayonini birlashtirilgan kunduzgi-masofaviy ta'lim asosida amalga oshirishda ham hamkorlik qilish imkoniyati mavjud. Ta'lim tizimi va alohida universitetlar doirasida imkoniyatlari cheklangan talabani o'qitishning inklyuziv amaliyotining barcha tarkibiy qismlarini ta'minlaydigan tuzilmalarni yaratish zarur, bu esa ta'lim tashkilotlarining bir qator ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Inklyuziv amaliyotni rivojlantirish oliy ta'lim tizimini tizimli qayta qurishning boshqa jarayonlari – Boloniya jarayoni me'yorlarini joriy etish, yangi ta'lim standartlariga o'tish, samarasiz universitetlarni qayta tashkil etish, mamlakatimizning eng yaxshi universitetlarining raqobatbardoshlikni oshirish dasturlarida ishtiroki va boshqalar bilan mos kelishi hisobga olinsa - imkoniyati cheklangan talabani o'qitish uchun izchil va hayotiy tashkiliy-me'yoriy bazani yaratishning butun qiyinligi ayon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, axborot texnologiyalarini keng qo'llash asosida oliy ta'limni texnologik modernizatsiya qilish, maxsus pedagogika yo'nalishi (logopediya, surdopedagogika, tiflopedagogika) bo'yicha imkoniyati cheklangan talabalarni tayyorlashning yangilangan tizimida axborot texnologiyalarining ro'li, o'rni va vazifalarini belgilashni taqozo etadi.

Imkoniyati cheklangan talabalarning oliy inklyuziv kasbiy ta'limi va ularning axborot kompetentsiyasini ishonchli shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari hozirgacha maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmagandi.

Shunday qilib, ishlab chiqish metodologiyasining mavjudligi, tavsiflangan elektron vositalardan foydalanishda nogiron talabalarda axborot kompetentsiyalarini shakllantirish samaradorligining tubdan oshganligi va bo'lg'usi surdopedagoglarni, logopedlarni, tiflopedagoglarni tayyorlashda bunday vositalarning yoqligi o'rtasida qarama-qarshilik mavjuddir.

Адабиётлар

1. Abdullayeva, G. S. (2021). The Use of Special Computer Technologies in Teaching Students with Hearing Impairment. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(12), 547-554.
2. Abdullayeva, G. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION OF PERSONS WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISORDERS. In *Современная наука, общество, образование: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 214-216).
3. Abdullayeva, G. S. (2021). Higher inclusive education for persons with special educational needs as a socio-pedagogical problem. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 175-181.
4. Abdullayeva, G. S. (2022). Computer Means of Visual Control of Pronunciation in the Work of a Special Teacher. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(10), 274-278.
5. Борякова Н. Ю. К проблеме психолого-педагогического сопровождения детей с задержкой психического развития в инклюзивной образовательной среде. // *Практический психолог и логопед, Ставрополь, 2014. № 3. 11-13-б.*
6. Давыдовская А. Ф. Внедрение инклюзивного образования в школе // *Материалы XI научно-практической конференции «Современное образование: вызовы времени – новые решения» // Москва, 2017. 20-24-б.*
7. Муминова, Л. Р. Концепция инклюзивного образования в Узбекистане. // *Материалы II Междунар. науч. -практ. конф. : «Инклюзивное образование: проблемы, поиск путей решения». – Душанбе, 2013. 17-20-б.*
8. Мир информационных технологий в реабилитации детей с особыми возможностями здоровья. // *Сборник материалов. – Ставрополь: Бюро новостей, 2016. 104 б.*
9. Подласый И. П. Педагогика : 100 вопросов – 100 ответов. // *Учебное*

- пособие для вузов. – Москва: ВЛАДОС-пресс, 2004. 365 б.
10. Хуторской А. Ключевые компетенции. Технология конструирования // Народное образование. 2003, № 5. 55-61-б.
 11. Швецов В. И. , Рощина М. А. Модель организации поддержки образовательного процесса студентов – инвалидов по зрению на основе использования компьютерных тифлотехнологий. // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, 2010. № 1. 11-18-б.
 12. Бегимкулов У. Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед. фан. док. ... дисс. – Т. , 2007. – 305 б.
 13. Кукушкина О. И. Использование информационных технологий в различных областях специального образования // Автореферат диссертации. Москва, 2005 г. - 58 с.
 14. Umbetova, M. A. , & Kubeysinova, U. T. (2022). Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o ‘yin mashqlari yordamida rivojlantirish. *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*, 1(10), 111-116.
 15. Кубейсинова, У. Т. (2021). О влиянии баскетбола на организм человека. Инновационные направления массового развития физической культуры и спорта в современных условиях, 1(1), 51-55.
 16. Кубейсинова, У. Т. (2021). Специализированное развитие прыгучести и прыжковой выносливости баскетболистов, как важное условие обеспечения результативности бросков, выполняемых в прыжке. *Fan-Sportga*, (1), 35-37.
 17. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta‘lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
 18. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
 19. Kadyrova, Z. Z. ; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.
 20. Кадирова, О. Х. , Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.